QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil)

PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

https://doi.org/10.70728/c.series.pedm.v08.i10.022

AXLOQIY QADRIYAT TUSHUNCHASINING FALSAFIY-PSIXOLOGIK TALQINI VA UNING ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O‘RGANILISHI

Jumaqulova Saodat Quvondiq qizi
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada axloqiy qadriyat tushunchasining etimologik, falsafiy va psixologik talqinlari tizimli tahlil qilingan. Antik, o‘rta asrlar xristian, Yangi davr G‘arb, Sharq va islom tafakkuri, tasavvuf hamda jadidlar merosidagi qarashlar zamonaviy xorijiy, rus va o‘zbek psixologiyasidagi konsepsiyalar bilan qiyoslangan. Tahlil asosida falsafiy merosda ilgari surilgan refleksiya, niyat, muvozanat va javobgarlik g‘oyalari zamonaviy psixologiyada axloqiy refleksiya, motivatsiya, emotsional o‘zini boshqarish va ichki nazorat lokusi tushunchalari sifatida ilmiy jihatdan o‘rganilayotgani asoslangan. Muallif axloqiy qadriyatni shaxs faoliyatini ichdan boshqaruvchi ko‘p komponentli psixologik tuzilma sifatida ta’riflaydi va uning kichik maktab yoshidan boshlab shakllantirilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: axloqiy qadriyat, xulq, etika, axloqiy refleksiya, ichki nazorat, ma’no, qadriyat yo‘nalganligi, emotsional intellekt, milliy qadriyatlar, jadidlar merosi.

Аннотация. В статье проведён системный анализ этимологических, философских и психологических трактовок понятия нравственной ценности. Взгляды античной, средневековой христианской, новоевропейской, восточной и исламской мысли, суфизма и наследия джадидов сопоставлены с концепциями современной зарубежной, российской и узбекской психологии. Обосновано, что идеи рефлексии, намерения, гармонии и ответственности, выдвинутые в философском наследии, в современной психологии научно изучаются как нравственная рефлексия, мотивация, эмоциональная саморегуляция и внутренний локус контроля. Автор определяет нравственную ценность как многокомпонентное психологическое образование, изнутри регулирующее деятельность личности, и показывает необходимость её формирования с младшего школьного возраста.

Ключевые слова: нравственная ценность, поведение, этика, нравственная рефлексия, внутренний контроль, смысл, ценностная ориентация, эмоциональный интеллект, национальные ценности, наследие джадидов.

Abstract. The article provides a systematic analysis of etymological, philosophical and psychological interpretations of the concept of moral value. The views of ancient, medieval Christian, modern Western, Eastern and Islamic thought, Sufism and the Jadid heritage are

compared with the concepts of contemporary foreign, Russian and Uzbek psychology. It is substantiated that the ideas of reflection, intention, harmony and responsibility put forward in the philosophical heritage are scientifically studied in modern psychology as moral reflection, motivation, emotional self-regulation and internal locus of control. The author defines moral value as a multicomponent psychological formation that regulates personal activity from within and shows the necessity of its formation from primary school age.

Keywords: moral values, behavior, ethics, moral reflection, self-regulation, meaning, value orientation, emotional intelligence, national values, Jadid heritage.

Kirish

Globallashuv va raqamlashuv sharoitida yosh avlodning qadriyatlar tizimi ilgari kuzatilmagan sur’atda o‘zgarmoqda. Axborot oqimining keskin ortishi, ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllanayotgan «trend qadriyatlar» va ommaviy madaniyat ta’siri shaxsda qadriyatlar tanlovi bo‘yicha kognitiv yuklamani kuchaytirib, axloqiy ikkilanishni yuzaga keltirmoqda. Xorijiy tadqiqotchilar bu holatni «raqamli axloqiy nomuvofiqlik» deb atashadi: yoshlar halollik, samimiylik va bag‘rikenglikni og‘zaki e’tirof etsa-da, virtual muhitda ko‘pincha bu qadriyatlarga zid xatti-harakat qiladi.

Mazkur muammo O‘zbekistonda davlat siyosati darajasida e’tirof etilgan. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunda ta’limning tarbiyaviy xarakteri, insonparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ta’lim sohasidagi asosiy tamoyillar qatorida belgilangan. «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunda bolani ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash oila, jamiyat va davlatning vazifasi sifatida qayd etilgan. «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida esa oila institutini mustahkamlash va yoshlarni yuksak ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash ustuvor maqsadlardan biri sifatida ko‘rsatilgan. Sh.M.Mirziyoyev «Yangi O‘zbekiston strategiyasi» asarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, ta’lim va tarbiyaning uzviyligini ta’minlash vazifalariga alohida to‘xtalgan.

Ushbu vazifalarni ilmiy asosda amalga oshirish axloqiy qadriyatning mohiyatini aniq belgilashni talab etadi. Axloqiy qadriyat muammosi falsafa, etika, pedagogika va psixologiya kesishmasida turadi va har bir fan uni o‘ziga xos nuqtai nazardan talqin qiladi. Falsafa uni ma’naviy ideal va me’yor sifatida, pedagogika tarbiya maqsadi sifatida, psixologiya esa shaxs faoliyatini boshqaruvchi ichki tuzilma sifatida o‘rganadi. Biroq bu talqinlar o‘rtasidagi vorisiylik, ya’ni falsafiy g‘oyalarning zamonaviy psixologik tushunchalarga qanday aylangani yetarlicha tizimli yoritilmagan.

Maqolaning **maqsadi** — axloqiy qadriyat tushunchasining falsafiy-tarixiy talqinlarini zamonaviy psixologik yondashuvlar bilan qiyoslash orqali uning ijtimoiy-psixologik mohiyatini ochib berish va muallifning ishchi ta’rifini asoslashdan iborat. Shu maqsadda quyidagi **vazifalar** qo‘yildi: tushunchaning etimologik asoslarini aniqlash; G‘arb, Sharq va islom tafakkuridagi asosiy qarashlarni psixologik mazmuni nuqtai nazaridan tahlil qilish; zamonaviy xorijiy, rus va o‘zbek psixologiyasidagi yondashuvlarni tasniflash; axloqiy qadriyatning tarkibiy tuzilishini modellashtirish.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-tarixiy, tizimli va germenevtik yondashuv usullaridan foydalanildi. Qiyosiy-tarixiy usul turli davr va madaniyatlardagi qarashlarni o‘zaro solishtirish, germenevtik usul esa mumtoz matnlardagi g‘oyalarning psixologik mazmunini izohlash imkonini berdi. Tizimli yondashuv orqali tahlil natijalari yaxlit tuzilmaga birlashtirildi.

Manbalar to‘rt guruhga ajratildi. Birinchi guruhni antik va o‘rta asrlar G‘arb falsafiy merosi (Suqrot, Platon, Aristotel, Avgustin, Foma Akvinskiy) hamda Yangi davr faylasuflari (T.Gobbs, J.Lokk, I.Kant) asarlari tashkil etdi. Ikkinchi guruhga Sharq va islom tafakkuri namoyandalari (Konfutsiy, Laozi, al-Farobiy, Ibn Sino, Abu Homid G‘azzoliy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy) va jadid ma’rifatparvarlari (Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov) merosi kiritildi. Uchinchi guruh — zamonaviy xorijiy va rus psixologiyasi (J.Rest va D.Narvaez, Sh.Shvarts, U.Bronfenbrenner, K.Rojers, J.Mayer va P.Salovey, E.B.Fantalova, D.A.Leontyev, T.V.Kornilova, A.V.Brushlinskiy). To‘rtinchi guruhni O‘zbekiston psixologlarining ilmiy ishlari (E.G‘.G‘oziyev, V.M.Karimova, G‘.B.Shoumarov, N.Ismoilova va D.Abdullayeva, B.I.Matchanova, B.E.Parmonov, M.D.Galdiyeva, X.X.Jabborov, A.A.G‘aybullayev, N.M.Musinova, S.X.Asilova, Z.T.Xayrullayeva, A.R.To‘raqulov va boshqalar) tashkil etdi.

Natijalar va muhokama

1. Tushunchaning etimologik asoslari. «Axloq» so‘zi arab tilidagi «xulq» so‘zining ko‘plik shakli bo‘lib, insonning fe’l-atvori, yurish-turishi va ichki tabiatini anglatadi. Islom axloqshunosligida «xulq» faqat tashqi xatti-harakat emas, balki ruhiy kamolot darajasi, niyatning sofligi va qalb holatini ham bildiradi. «Qadriyat» atamasi esa arabcha «qadr» — qiymat, ulug‘lik, e’tiborga loyiqlik ildizidan kelib chiqqan. G‘arb an’anasida yunoncha «ethos» (yashash tarzi, urf-odat) so‘zidan «etika», lotincha «mores» (odatlar, axloqiy qoidalar) so‘zidan esa «moral» atamasi shakllangan.

Etimologik tahlil muhim bir qonuniyatni ochib beradi. Arab tilidagi «xulq» atamasi asosan shaxsning ichki holatiga, yunon va lotin tillaridagi «ethos» va «mores» esa ko‘proq jamiyatda qabul qilingan odatlarga yo‘naltirilgan. Demak, tushunchaning tarixiy ildizlaridayoq uning ikki tomoni — ichki-shaxsiy va tashqi-ijtimoiy tomoni mavjud. Bizningcha, aynan shu ikki tomonning uyg‘unligi axloqiy qadriyatning psixologik mohiyatini tashkil etadi: jamiyat tomonidan e’tirof etilgan me’yor shaxs tomonidan ichdan qabul qilinganidagina qadriyatga aylanadi.

2. Antik va o‘rta asrlar falsafasida axloqiy qadriyat. Antik falsafada axloq inson hayotining markaziy masalasi sifatida talqin qilingan. Suqrot ezgulikni bilim bilan bog‘lab, insonning ezgu ishlari uning o‘zini tanishi va o‘z xatti-harakatini tahlil qila olishiga bog‘liq ekanini ta’kidlagan. Psixologik nuqtai nazardan bu g‘oya axloqiy refleksiya va introspektiv ong tushunchalarining ilk shakli hisoblanadi. Platon «Davlat» asarida axloqiy idealni ruhning uch qismi — aql, iroda (g‘azab) va nafs muvozanatida ko‘radi va bu muvozanatni adolat deb ataydi. Bu model keyinchalik shaxs strukturasidagi ichki nizolar haqidagi psixologik nazariyalarda, jumladan, Z.Freydning «id – ego – superego» tizimida o‘z aksini topgan. Aristotel «Nikomax axloqi» asarida fazilatni ortiqchalik va yetishmovchilik o‘rtasidagi «oltin o‘rtalik» deb belgilaydi va uni ko‘p marta takrorlangan xatti-harakatlar natijasida shakllanadigan barqaror

odat sifatida talqin qiladi. Bu g‘oya zamonaviy psixologiyadagi xulq-atvorning avtomatlashuvi va emotsional o‘zini boshqarish tushunchalariga asos bo‘lgan.

O‘rta asrlar xristian falsafasida axloq ilohiy iroda bilan bog‘langan. Avgustin axloqiy tanlovni insonning erkin irodasi bilan izohlab, axloqni vijdon, ichki ziddiyat va tavba jarayoni orqali tahlil qilgan. Foma Akvinskiy esa axloqiy baholashda niyat va maqsadning hal qiluvchi ahamiyatini ta’kidlagan: tashqi jihatdan ezgu bo‘lgan harakat noto‘g‘ri niyat bilan qilinsa, axloqiy jihatdan qoralanishi mumkin. Mazkur g‘oya zamonaviy rivojlanish psixologiyasida niyat va oqibatni farqlash tushunchasi sifatida o‘rganilmoqda. Xususan, kichik maktab yoshidagi bola ataylab va tasodifan yetkazilgan zararni bir xil baholamasligi tajribalarda tasdiqlangan.

3. Yangi davr falsafasida axloqning dunyoviy talqini. Yangi davrda axloq diniy asosdan ajralib, inson tabiati, tajribasi va aqli orqali tushuntirila boshladi. T.Gobbs «Leviafan» asarida axloqni xavfsizlik va tinchlikni ta’minlash uchun ijtimoiy shartnoma asosida yaratilgan me’yorlar sifatida talqin qilgan. J.Lokk axloqni ijtimoiy tajriba va hissiy baholashning mahsuli deb hisoblagan, bu esa keyinchalik affektiv psixologiyaga asos bo‘lgan. I.Kant axloqni aqlga asoslangan ichki burch hissi bilan bog‘lab, axloqli insonni o‘z xatti-harakatini oqibatga emas, printsipga muvofiq amalga oshiruvchi shaxs deb ta’riflagan. Kant qarashlari shaxsning ichki boshqaruv mexanizmlari haqidagi psixologik nazariyalar bilan mushtarakdir.

4. Sharq va islom tafakkurida axloqiy qadriyat. Sharq falsafasida axloq inson va koinot, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlik vositasi sifatida qaralgan. Konfutsiy insonparvarlik (jen), urf-odat (li), adolat (i) va ota-onaga hurmat (syao) qadriyatlarini jamiyatdagi tartibning asosi deb bilgan. Bu qarashlar oilaviy qadriyatlarning ustuvorligi jihatidan o‘zbek milliy tarbiya an’analariga ham yaqin.

Islom tafakkurida axloq qalb pokligi, niyat sofligi va ijtimoiy mas’uliyatning zamini hisoblanadi. Abu Homid G‘azzoliy «Ihyo ulumid-din» asarida axloqni qalbda paydo bo‘ladigan va insonni o‘z-o‘zidan ezgulikka yo‘naltiradigan barqaror holat sifatida ta’riflaydi. Uning ta’limotida «muhosaba», ya’ni o‘z amallarini muntazam tahlil qilish va «muroqaba» — o‘zini doimiy nazorat ostida his qilish axloqiy kamolot vositalari sifatida ko‘rsatiladi. Psixologik jihatdan bu tushunchalar o‘z-o‘zini baholash, ixtiyoriy nazorat va refleksiya bilan mos keladi. G‘azzoliy axloqiy fazilatlarni tabiiy va orttirilgan turlarga ajratib, orttirilgan fazilatlar tarbiya va o‘z ustida ishlash orqali shakllanishini ta’kidlaydi. Bu g‘oya axloqiy qadriyatlarning tug‘ma emas, balki rivojlantiriladigan sifat ekanini ko‘rsatadi.

Al-Farobiy «Fozil odamlar shahri» asarida axloqiy fazilatlarni jamiyat taraqqiyotining poydevori, Ibn Sino esa ruhiy salomatlik va jamiyatdagi muvozanatni ta’minlovchi omil sifatida baholagan. Ibn Sino axloqqa tabiat orqali emas, tarbiya orqali erishilishini ta’kidlaydi. Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida halollik, saxovat, mehr-oqibat va kamtarlikni yuksak insoniy fazilatlar sifatida tasvirlab, ularni jamiyat barqarorligi bilan bog‘laydi.

Tasavvufda axloqiy qadriyatlar bosqichma-bosqich egallanadigan ruhiy maqomlar — sabr, shukr, tavakkul, zuhd, rizo sifatida talqin qilinadi. Bahouddin Naqshbandning «Dil ba yoru, dast ba kor» tamoyili ong va faoliyat uyg‘unligini, ichki motivatsiya va amaliy faollikning birligini

ifodalaydi. Tasavvufdagi har bir inson o‘z harakati va fikri uchun javobgar ekanini his etishi haqidagi g‘oya zamonaviy psixologiyadagi ichki nazorat lokusi tushunchasiga mos keladi.

5. Jadidlar merosida axloqiy tarbiya. XX asr boshidagi jadid ma’rifatparvarlari axloqiy tarbiyani millat taraqqiyotining asosi deb bilgan. Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida tarbiyani millat uchun hayot-mamot masalasi sifatida ko‘rsatib, yaxshi xulqlar bolalikdan singdirilishi zarurligini ta’kidlaydi. Uning tasnifida yaxshi va yomon xulqlar alohida ajratilib, har birining shaxs va jamiyat uchun ahamiyati izohlanadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy millatning bardavomligini ilm bilan birga axloq va hunarga bog‘lagan. Munavvarqori Abdurashidxonov esa maktab darslarining har birida insoniylik va vatanparvarlik tarbiyasi uyg‘unlashishi kerakligini ilgari surgan. Jadidlarning bu qarashlari axloqiy tarbiyani yosh davrlari bilan bog‘lash, uni ta’lim mazmuniga singdirish g‘oyasini ilgari surgani bilan bugungi rivojlanish psixologiyasiga yaqin turadi.

Yuqoridagi tahlil natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

Mutafakkir yoki an’ana	Asosiy g‘oya	Zamonaviy psixologik muqobili
Suqrot	Ezgulik bilimga va o‘zini tanishga tayanadi	Axloqiy refleksiya, introspektiv ong
Platon	Aql, iroda va nafs muvozanati — adolat	Shaxs strukturasi va ichki nizolar nazariyasi
Aristotel	Fazilat — takrorlanib odatga aylangan «oltin o‘rtalik»	Xulq-atvorning avtomatlashuvi, emotsional o‘zini boshqarish
Foma Akvinskiy	Harakatning axloqiyligini niyat belgilaydi	Axloqiy motivatsiya, niyat va oqibatni farqlash
I.Kant	Axloq — ichki burch va aql printsipi	Ichki boshqaruv mexanizmlari, superego
Konfutsiy	Insonparvarlik, adolat, ota-onaga hurmat	Oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy uyg‘unlik
G‘azzoliy	Muhosaba va muroqaba; orttirilgan fazilatlar	O‘z-o‘zini baholash, ixtiyoriy nazorat, rivojlantiriladigan sifatlar
Tasavvuf	Har bir harakat uchun shaxsiy javobgarlik	Ichki nazorat lokusi, stressga chidamlilik
Abdulla Avloniy	Axloqiy tarbiya bolalikdan boshlanadi	Yosh davrlari psixologiyasi, sensitiv davrlar

Jadval axloqiy qadriyatning ikki jihatini yaqqol ko‘rsatadi. Bir tomondan, u ma’naviy ideal va jamiyat me’yoridir. Ikkinchi tomondan, u shaxsning refleksiyasi, motivatsiyasi va o‘zini boshqarishi bilan bog‘liq psixik regulyatordir. Falsafiy merosning ahamiyati shundaki, unda bugungi psixologiya empirik o‘rganayotgan mexanizmlar intuitiv tarzda tavsiflangan.

6. Zamonaviy xorijiy psixologiyada axloqiy qadriyatlarning o‘rganilishi. So‘nggi o‘n yilliklarda axloqiy qadriyatlar psixologiyada bir necha yo‘nalishda o‘rganilmoqda.

Birinchi yo‘nalish — *axloqiy qaror qabul qilish*. J.Rest va D.Narvaez axloqiy xulqning to‘rt komponentli modelini ishlab chiqqan: axloqiy sezgirlik (vaziyatdagi axloqiy muammoni anglash), axloqiy mulohaza (muqobil yechimlar ustida fikr yuritish), axloqiy motivatsiya (qadriyatga sodiqlik asosida harakat qilish istagi) va axloqiy xarakter (qarorni real hayotda amalga oshirish). Ushbu modelga ko‘ra, qadriyatlar faqat idealda emas, real tanlovda namoyon bo‘ladi, bir komponentning zaifligi esa butun jarayonni buzadi.

Ikkinchi yo‘nalish — *madaniyatlararo yondashuv*. Sh.Shvartsning universal qadriyatlar nazariyasi o‘nta asosiy qadriyat kategoriyasini — universallik, xayrixohlik, an’ana, konformizm, xavfsizlik, hokimiyat, yutuq, gedonizm, rag‘bat va mustaqillikni ajratadi. Muallif bu qadriyatlarni ikki o‘q bo‘yicha joylashtiradi: «o‘zgarishga ochiqlik – an’anani saqlash» va «o‘zini kuchaytirish – o‘zidan yuqoriga ko‘tarilish». Axloqiy qadriyatlar asosan «xayrixohlik» va «universallik» kategoriyalarida mujassamlashgan bo‘lib, ular shaxsning manfaatini boshqalar manfaatidan ustun qo‘ymaslik bilan tavsiflanadi.

Uchinchi yo‘nalish — *qadriyatlar va psixologik farovonlik*. K.Rojersning «o‘z-o‘zini uyg‘unlashtirish» g‘oyasiga ko‘ra, inson o‘z qadriyatlariga mos yashaganda «ideal men» va «real men» o‘rtasidagi tafovut kamayadi, bu esa ruhiy uyg‘unlikni ta’minlaydi. K.Sheldon va hammualliflarining tadqiqotlari axloqiy qadriyatlarga mos hayot kechirish shaxsning ichki izchilligini va hayotdan qoniqishini oshirishini ko‘rsatadi. J.Mayer, P.Salovey va D.Karuzo ishlab chiqqan emotsional intellekt modeli esa o‘z va boshqalar emotsiyalarini anglash va boshqarish qobiliyatini adolat, mehr-oqibat va bag‘rikenglik kabi qadriyatlarning psixologik asosi sifatida ko‘rsatadi.

To‘rtinchi yo‘nalish — *ijtimoiy muhit va qadriyatlar*. U.Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi qadriyatlarni oila, maktab, tengdoshlar (mikrotizim), ularning o‘zaro aloqasi (mezotizim), ota-onaning ish joyi va mahalla (ekzotizim), milliy madaniyat (makrotizim) va vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishlar (xronotizim) bilan o‘zaro ta’sirda shakllanuvchi dinamik tizim sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv demokratik va empatik muhit mehr-oqibat va mas’uliyatni mustahkamlashi, avtoritar muhit esa tashqi itoatni kuchaytirib, ichki qadriyatlar shakllanishiga to‘sqinlik qilishini tushuntirib beradi.

7. Rus psixologiyasida qadriyatlarning faoliyat va ma’no orqali talqini. Rus psixologiyasida qadriyatlar shaxs faoliyati va hayotiy ma’nosi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. D.A.Leontyev qadriyatni «qadriyat – ma’no – harakat» uchligining markaziy elementi sifatida ko‘radi: qadriyatlar hayotni ma’nolantiruvchi bazaviy tuzilmalar, ma’no ular asosida shakllanuvchi psixologik kategoriya, faoliyat esa qadriyat orqali tanlangan va motivatsiyalangan harakatdir. Leontyev qadriyatlari aniq shaxs stressga chidamliroq bo‘lishini ko‘rsatib, «resursli qadriyatlar» tushunchasini kiritadi. E.B.Fantalova qadriyatlarni psixologik sog‘lomlik indikatori sifatida o‘rganib, qadriyatning ahamiyatliligi va uning hayotda amalga oshganligi o‘rtasidagi tafovut ichki ziddiyat manbai ekanini asoslagan.

T.V.Kornilova axloqiy refleksiya darajasi yuqori shaxslar murakkab vaziyatlarda qadriyatga asoslangan qaror qabul qilishini, refleksiyasi past shaxslar esa ijtimoiy konformizm

yoki foyda asosida harakat qilishini ko‘rsatgan. A.V.Brushlinskiy maktabi qadriyatlarni faoliyatda namoyon bo‘luvchi ichki psixologik determinant sifatida talqin qiladi. Bu maktab vakillariga ko‘ra, qadriyatlar faoliyatda izchil namoyon bo‘lmasa, shaxsda axloqiy ikkilanish va motivatsion ziddiyat yuzaga keladi.

8. O‘zbekiston psixologiyasida axloqiy qadriyatlar muammosi. O‘zbek psixologlari axloqiy qadriyatlarni milliy madaniyat va oilaviy tarbiya kontekstida chuqur o‘rganib kelmoqda. E.G‘.G‘oziyev axloqni shaxs ichki ongida shakllanuvchi, o‘z-o‘zini baholash orqali yuzaga keladigan psixik holat sifatida ta’riflaydi. Uning fikricha, vijdon shaxsning ichki axloqiy sudyasidir, axloqiy rivojlanish esa yosh bosqichlariga bog‘liq: bolalikda axloq ko‘proq mukofot va jazo bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘smirlik va yetuklik davrida ijtimoiy mas’uliyatni hisobga olgan ongli qarorlarga o‘tadi.

V.M.Karimova va G‘.B.Shoumarov oila psixologiyasiga oid tadqiqotlarida oilaviy munosabatlar uslubini farzand shaxsi va qadriyatlar tizimining shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida ko‘rsatadi. N.Ismoilova va D.Abdullayeva axloqiy me’yorlarni jamiyat a’zolarining yurish-turishini nazorat qiluvchi, burch, vijdon, or-nomus va sha’n tushunchalarining amaliy ifodasi sifatida talqin qiladi va axloqiy qarashlarni shaxsning ijtimoiylashuvi bilan bog‘laydi.

So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda qator dissertatsiya tadqiqotlari bajarildi. B.E.Parmonov maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy munosabatlari kognitiv, hissiy va xulqiy komponentlardan iborat ekanini aniqlagan. M.D.Galdiyeva boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy tarbiya rivojida axloqiy me’yor, kategoriya va tamoyillarning ijtimoiy-psixologik vosita sifatidagi o‘rnini yoritgan. X.X.Jabborov mehmondo‘stlik, muruvvatlilik, g‘amxo‘rlik, hojatbarorlik, ahillik kabi milliy qadriyatga aylangan fazilatlar xulqda ustuvor namoyon bo‘lishini ko‘rsatgan. A.A.G‘aybullayev milliy qadriyatlarning yoshlarni o‘zini anglash va o‘zini qadrlashga undovchi kuchli omil ekanini, ularni yuzaga keltiruvchi omillar oila, ta’lim, jamiyat va ommaviy axborot vositalari ekanini aniqlagan. N.M.Musinova oilada milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash o‘smirlarda mustaqillik, muloqotmandlik va jamoaviylikni rivojlantirishini isbotlagan.

Mahalliy tadqiqotchilardan B.I.Matchanova axloqiy qadriyatlarni jamiyatda ishonch, hamjihatlik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi omil sifatida baholaydi. S.X.Asilova qadriyat yo‘nalganligini shaxs tomonidan ongli tanlangan va e’tiqod darajasida qabul qilingan mezonlar tizimi sifatida ta’riflaydi. Z.T.Xayrullayeva qadriyatni insonning o‘ziga va atrofdagilarga munosabatlar tizimi bilan bog‘liq kategoriya sifatida ko‘rsatadi. A.R.To‘raqulov axloqiy me’yorlarni axloqiy kategoriya, axloqiy tamoyil va axloqiy ideal qatlamlariga ajratib, ularning ijtimoiy ongda bosqichma-bosqich shakllanishini asoslagan.

9. Axloqiy qadriyatning tarkibiy tuzilishi: muallif yondashuvi. Falsafiy va psixologik qarashlar tahlili asosida muallif axloqiy qadriyatga quyidagi ishchi ta’rifni taklif etadi: *axloqiy qadriyat — jamiyat tomonidan e’tirof etilgan ezgulik me’yorlarining shaxs tomonidan ichdan qabul qilinib, uning o‘zini baholash mezoni, faoliyat motivi va xulq-atvorining ichki regulyatoriga aylangan ko‘p komponentli psixologik tuzilmasidir*.

Ushbu ta’rifga muvofiq axloqiy qadriyatning tarkibiy tuzilishida to‘rt komponent ajratiladi.

Komponent	Psixologik mazmuni	Falsafiy ildizi	Namoyon bo‘lish ko‘rsatkichi
Kognitiv	Axloqiy me’yorlarni, ularning sababi va oqibatini anglash	Suqrot, Foma Akvinskiy	Hayotiy vaziyatlarda axloqiy mulohaza yuritish
Emotsional	Empatiya, vijdon, ayb va uyat hissi, emotsional o‘zini boshqarish	Lokk, G‘azzoliy, tasavvuf	Boshqalar holatiga hamdardlik, xato uchun pushaymonlik
Motivatsion-identiklik	Qadriyatni shaxsiy «men»ning qismi sifatida qabul qilish, ichki burch hissi	Kant, Avloniy	Tashqi nazoratsiz ham me’yorga amal qilish
Xulqiy	Qadriyatning barqaror odatga aylanishi	Aristotel, Naqshband	Prosotsial xulqning izchilligi

Mazkur tuzilma axloqiy qadriyatlarni shakllantirish faqat bilim berish bilan cheklanmasligini, balki emotsional tajriba, shaxsiy identiklik va amaliy faoliyatni ham qamrab olishi lozimligini ko‘rsatadi. Komponentlardan birortasi zaif bo‘lsa, qadriyat to‘liq ichkilashmaydi: masalan, bilim mavjud bo‘lib, emotsional komponent zaif bo‘lsa, shaxs me’yorni biladi, lekin unga amal qilishga ichki ehtiyoj sezmaydi.

Bu tuzilmaning shakllanishi uchun kichik maktab yoshi alohida ahamiyatga ega. E.G‘.G‘oziyev, Z.T.Nishanova, M.X.Xolnazarova va M.Q.Muxliboyev ta’kidlaganidek, aynan shu davrda bolada o‘z-o‘zini anglash, ichki nazorat va ixtiyoriy xulq shakllana boshlaydi. Demak, axloqiy qadriyatlarning to‘rt komponentini uyg‘un rivojlantirishga qaratilgan psixologik ishlar aynan kichik maktab yoshidan boshlanishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa Abdulla Avloniyning tarbiyani bolalikdan boshlash haqidagi g‘oyasining zamonaviy psixologik asoslanishi hisoblanadi.

Xulosa

Olib borilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Axloqiy qadriyat tushunchasi ko‘p qatlamli bo‘lib, uning arab, yunon va lotin tillaridagi ildizlari inson xulqining ichki-shaxsiy va tashqi-ijtimoiy tomonlarini birgalikda ifodalaydi. Jamiyat me’yori shaxs tomonidan ichdan qabul qilinganidagina qadriyatga aylanadi.

2. Antik, xristian, Yangi davr, Sharq va islom mutafakkirlari hamda jadidlarning qarashlari zamonaviy axloq psixologiyasining konseptual asosini tashkil etadi. Refleksiya, niyat, muvozanat va javobgarlik haqidagi falsafiy g‘oyalar bugungi kunda axloqiy refleksiya, motivatsiya, emotsional o‘zini boshqarish va ichki nazorat lokusi sifatida empirik o‘rganilmoqda.

3. Zamonaviy xorijiy va rus psixologiyasida axloqiy qadriyatlar axloqiy qaror qabul qilish, madaniyatlararo farqlar, psixologik farovonlik, ijtimoiy muhit hamda hayotiy ma’no va faoliyat bilan bog‘liq holda o‘rganilmoqda; ularning umumiy jihati qadriyatni shaxs faoliyatining ichki regulyatori sifatida talqin qilishdir.

4. O‘zbekiston psixologlari axloqiy qadriyatlarni milliy qadriyatlar, oilaviy tarbiya va ijtimoiylashuv kontekstida o‘rganib, ularning shakllanishida oila, ta’lim muhiti va jamiyatning hal qiluvchi rolini asoslagan.

5. Muallif axloqiy qadriyatni kognitiv, emotsional, motivatsion-identiklik va xulqiy komponentlardan iborat psixologik tuzilma sifatida ta’riflaydi. Bu tuzilmani uyg‘un shakllantirish kichik maktab yoshidan boshlanishi va bilim berish bilan bir qatorda emotsional tajriba, shaxsiy identiklik va amaliy faoliyatni qamrab olishi zarur.

Kelgusi tadqiqotlar kichik maktab yoshidagi bolalarda axloqiy qadriyat komponentlarining rivojlanish darajasini empirik aniqlash va ularni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik trening dasturini ishlab chiqishga yo‘naltiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 23.09.2020 // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

2. O‘zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘RQ-139-son, 07.01.2008 // lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son Farmoni, 11.09.2023 // lex.uz.

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – 160 b.

6. Al-Farobiy. Fozil odamlar shahri / tarj. M.Yoqubov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1993. – 284 b.

7. G‘azzoliy A.H. Ihyo ulumid-din / tarj. A.A’zam. – Toshkent: Movarounnahr, 2005. – 576 b.

8. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 316 b.

9. Abdirashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy: risola. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.

10. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zMU, 2004. – 224 b.

11. G‘oziyev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. – Toshkent: Noshir, 2010. – 360 b.

12. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. – Toshkent, 2006. – 104 b.

13. Shoumarov G‘.B. (tahrir ostida). Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2000. – 400 b.

14. Ismoilova N., Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2023. – 240 b.

15. Nishanova Z.T. va boshq. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya: darslik. – Toshkent, 2018. – 600 b.

16. Xolnazarova M.X., Muxliboyev M.Q. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 208 b.

17. Matchanova B.I. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning jamiyat ijtimoiy barqarorligidagi roli // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2024. – T. 4. – № 10. – B. 392–398.

18. Parmonov B.E. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tushunchalar shakllanishining psixologik xususiyatlari: PhD diss. avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 25 b.

19. Galdiyeva M.D. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy tarbiyani rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: PhD diss. avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 50 b.

20. Jabborov X.X. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari: DSc diss. avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 24 b.

21. G‘aybullayev A.A. Yoshlarda milliy qadriyat shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari: PhD diss. avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 26 b.

22. Musinova N.M. Oilada o‘smirlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: PhD diss. avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 24 b.

23. Asilova S.X. O‘quvchilarda qadriyat yo‘nalganligining psixologik jihatlari // Journal of New Century Innovations. – 2025. – T. 79. – № 2. – B. 182–183.

24. Xayrullayeva Z. Hayotiy mazmunni mo‘ljalga olish talabalik davrida hayotiy qadriyatlarni belgilovchi mezon sifatida // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025. – T. 3. – № 7.

25. To‘raqulov A.R. Ijtimoiy axloq me’yorlarining mazmun-mohiyati // Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – T. 4. – № 7S. – B. 640–642.

26. Аристотель. Никомахова этика // Сочинения: в 4 т. – М.: Мысль, 1983. – Т. 4. – С. 53–293.

27. Платон. Государство // Собрание сочинений: в 4 т. – М.: Мысль, 1994. – Т. 3. – С. 79–420.

28. Леонтьев Д.А. Психология смысла: природа, строение и динамика смысловой реальности. – М.: Смысл, 2003. – 487 с.

29. Фанталова Е.Б. Диагностика и психотерапия внутреннего конфликта. – Самара: Бахрах-М, 2001. – 128 с.

30. Брушлинский А.В. Психология субъекта. – СПб.: Алетейя, 2003. – 272 с.

31. Rest J.R., Narvaez D. (eds.). Moral Development in the Professions: Psychology and Applied Ethics. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum, 1994. – 240 p.

32. Schwartz S.H. An overview of the Schwartz theory of basic values // Online Readings in Psychology and Culture. – 2012. – Vol. 2. – № 1.

33. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.

34. Rogers C.R. On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy. – Boston: Houghton Mifflin, 1961. – 420 p.

35. Mayer J.D., Salovey P., Caruso D.R. Emotional intelligence: Theory, findings, and implications // Psychological Inquiry. – 2004. – Vol. 15. – № 3. – P. 197–215.

36. Serrano-Puche J. Digital moral dissonance: Challenges in online moral behavior // Media, Culture & Society. – 2022. – Vol. 44. – № 3. – P. 512–529.